# AYOLLARGA HUQUQIY MASALAHATLAR BERISH DAVOM ETMOQDA

Qo’shtepa tumanidagi Kattaboltako’l mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi 6-umumiy o’rta ta'lim maktabida Kattaboltako’l, Vatan, Bo’ston  mahalla fuqarolar yig’inida istiqomat qiluvchi 35 nafar muammoli, huquqiy maslahatga muhtoj bo’lgan xotin-qizlar ishtirokida davra suhbati o’tkazildi. Bundan ko’zlangan maqsad ularning muammolarini o’rganish hamda haq-huquqlarini himoya qilish, shuningdek huquqiy savodxonligini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdir.

Tadbirda tuman hokimining Xotin-qizlar masalalari bo’yicha maslahatchisi M.Mo’ydinova, Adliya bo’limi boshlig’i A.Xomidov va viloyat “Mehrjon” Ayollar va Bolalar markazi tomonidan tashkil qilingan yuridik markazi huquqshunosi Sh.Abdurazzoqovalar ishtirok etishdi.

Muloqot chog’ida ishtirokchilarga davlatimiz tomonidan xotin-qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilib, ularni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish jamiyatda o’z o’rinlarini topishlariga ko’mak berish, zo’ravonlik va tayziqlardan himoya qilish, gender tengligi masalalarida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot va tushunchalar berildi.

Ishtirokchilarning ijtimoiy nafaqa, imtiyozli uy-joy olish, mulkiy nizolar, oilaviy kelishmovchiliklar masalasidagi so’rovlari eshitilib, mutaxassislar tomonidan huquqiy maslahatlar va tavsiyalar berildi.

**Qo’shtepa tumani hokimligi**

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

Facebook,

2021-08-06 17:58:55